

TA'LIMDA INNOVATSIYALAR VA MILLIY O'ZIGA XOSLIKNI SAQLAB QOLISH STRATEGIYALARI

Sirojiddinov Odiljon Ilxomjonovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti

Maktab menejmenti yo'nalishi talabasi

E-mail: odiljonsirojiddinov04@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'limdagi innovatsion yondashuvlarning ahamiyati hamda milliy madaniyatlarga ta'siri, shuningdek, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish strategiyalari yoritiladi.*

Annotation. *This article highlights the importance of innovative approaches in education and their impact on national cultures, as well as strategies for preserving national identity.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается важность инновационных подходов в образовании и их влияние на национальные культуры, а также стратегии сохранения национальной идентичности.*

Kalit so'zlar: *Innovatsiyalar, milliy o'ziga xoslik, metodlar, ta'lim, multimedia, madaniyat, kreativlik.*

Keywords: *Innovations, national identity, methods, education, multimedia, culture, creativity.*

Ключевые слова: *Инновации, национальное самосознание, методы, образование, мультимедиа, культура, креативность.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonlari albatta innovatsion yondashuvlarni va metodlarni joriy etish bilan aloqador. Texnologik taraqqiyotlar, yangi interaktiv metodlarning rivojlanishi ta'lim tizimining doimiy yangilanishini talab qiladi. Bugungi kunda innovatsiyalar ta'lim samaradorligini oshirish, bilim olish jarayonlarini qulay bo'lishga xizmat qilsa-da, milliy o'ziga xoslikni yo'qotmaslik ham asosiy vazifalaridan biridir. Har bir rivojlanmoqchi bo'lgan davlat ta'limni shakllantirishda milliy o'ziga xoslikni saqlab qolishi va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqishi zarur. Bundan tashqari ta'lim tizimi jamiyatimizning rivojlanishi va kelajagida muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, innovatsiyalarni qo'llash, milliy o'ziga xoslikni, madaniy qadriyatlarni va an'anaviy ta'lim usullarining ijobiy tomonlarini saqlab qolish ham muhim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta’lim jarayonlarida texnologiyalardan foydalanish ya’ni kompyuter, elektron doskalar, turli multimedia vositalaridan mahorat bilan o’quv mashg’ulotlarida foydalanilsa kerakli materialni kerakli joyda qo’llay olishi qobiliyati rivojlanadi. Ta’limda yangicha yondashuv va innovatsiyalarni tatbiq qilish, darsni boshidan oxirigacha noodatiy va zamonaviy metodlardan foydalangan holda tashkillashtirish ham, aslida bir texnologiyadir. Shu bilan birgalikda dars jarayonida kreativlik va milliy o’ziga xoslikni qo’llash ham ahamiyatlidir. “Kreativlik” so’zi ingliz tilidan kelib chiqqan bo’lib, yangilik yaratish, yangilik degan ma’nolarni bildiradi[1] Aynan hozirgi kundagi pedagoglar ham dars jarayonlarini shu yo’sinda olib borishsa, dars ko’proq samarali bo’ladi. Rivojlangan chet mamlakatlarning ta’lim tizimida ta’limga juda katta e’tibor berishadi va ko’proq zamonaviy, turli texnologiya va metodlardan foydalanib dars jarayonlarini tashkil qilishadi. O’quv mashg’ulot xonalarini ham kreativlik bilan o’zgacha tarzda tashkil qilishadi va bu o’quvchilarga o’rganishga motivatsiya bo’ladi. Innovatsion va zamonaviy texnologiyalar pedagogik ya’ni ta’lim jarayonlarida o’qituvchi va talabaning faoliyatiga yangilik, o’zgartirishlar bo’lib, uni amalga oshirish uchun bir qancha interfaol metodlardan foydalanishni talab qiladi. Pedagogik innovatsiya nima? Pedagogik innovatsiya – bu pedagogik faoliyatdagi yangilik, o’zgartirish, o’qitish va tarbiya texnologiyasidagi o’zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsiyadir[2]

MUHOKAMA VA NATIJA

Biz o’rganayotgan mavzuyimizni yanada chuqurroq tahlil qilishimiz uchun “Ta’limda innovatsiyalar va milliy o’ziga xoslikni saqlab qolish nima?” degan savolga javob izlasak mavzuni yanada aniqroq yoritib olamiz. Ta’limda innovatsiyalar va milliy o’ziga xoslikni saqlab qolish – bu ikki asosiy jihatlarni uyg’unlashtirishda muhim bo’lgan masaladir. Bir tomondan olib qarasak, rivojlanayotgan va zamonaviy dunyoda ta’lim tizimini doimiy ravishda yangilab borish, innovatsion, zamonaviy metodlar va texnologiyalardan foydalanish zarur. Ikkinchi tomondan esa, milliy qadriyatlar, an’analar hamda madaniyatni saqlab qolish, o’zligini anglashni mustahkamlash ham milliy o’ziga xoslikni aks ettirishda muhim rol o’ynaydi. Bu kabi jihatlarni samarali uyg’unlashtirishning bir nechta strategiyalari mavjud:

1. Milliy va an’anaviy qadriyatlarga asoslangan innovatsiyalar. Yaratilayotgan yangi texnologiyalar va metodlar milliy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilishi lozim.
2. An’anaviy ta’lim usullarining ijobiy tomonlarini saqlab qolish. Samarali an’anaviy metod va usullarni yangi zamonaviy texnologiyalar bilan uyg’unlashtirish lozim.

3. Ta’lim muassasalarida milliy muhitni yaratish. Universitet, maktablarda milliy muhitni yaratish, o’quvchi va talabalarni milliy urf-odatlar, qadriyatlar bilan tanishtirish va ularni milliy madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalash lozim.

4. Milliy til va madaniyatni o’rgatishga alohida e’tibor qaratish. O’quvchi va talabalarda milliy g’urur hamda vatanparvarlik tuyg’ularini shakllantirish muhim.

5. O’quv dasturlarini milliy o’ziga xoslikni hisobga olgan holda ishlab chiqish. O’quv dasturlarida milliy tariximiz, madaniyatimiz, an’alarimizni aks ettirish hamda o’quvchi va talabalarni o’z yurti bilan faxrlanishga undash kerak.

Bu yuqorida keltirgan strategiyalarni qo’llash orqali biz ta’limda innovatsiyalar va milliy o’ziga xoslikni uyg’unlashtirish va milliy qadriyatlarga sodiq avlodlarni tarbiyalashimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalarining odamni hayotidagi roli sezilarli darajada oshdi va bu biroz milliy o’zlikka ham ta’sir qildi. Zamonaviy jamiyat esa axborotlashtirish deb nomlangan tarixiy jarayonga aralashdi. Bu jarayon esa har qanday texnologiyalarning ilmiy, ishlab chiqarish hamda axborot xizmatining yuqori darajasini o’z ichiga oladi[3]

XULOSA

Xulosa qiladigan bo’lsak, ta’limda innovatsiyalarni va milliy o’ziga xoslikni saqlab qolishni joriy etish, talablarni qondirish hamda raqobatbardoshlikni ta’minlash zarur. Bundan tashqari, milliy o’ziga xoslikni saqlash ham muhim o’rin tutadi. To’g’ri, innovatsiyalar ta’lim jarayonlarini qizg’in, samarali qilishga yordam bersa, milliy o’ziga xoslik, milliy qadriyatlar, urf-odatlar yosh avlodning ma’naviy tomondan kamolotini ta’minlaydi. Shuning uchun yondashuvlar texnologiyalar va zamonaviy innovatsion metodlarini milliy ta’limimiga moslashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirova K. J, Tirkasheva X. N, Alimuratova S. O, Isroilova F. X. “Ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish va kreativlik”. Innovative Development in Educational Activities. 2022

2. Ashurova F.X. “Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish”. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022

3. Алдашев И. Использовать специфические свойства компьютера, позволяющие индивидуализировать учебный процесс и обратиться к принципиально новым познавательным средствам. “Экономика и социум” №6(73) 2020

4. www.iupr.ru
5. <https://cyberleninka.ru>
6. <https://api.scienceweb.uz>